



Peter Childs Va Rojer Faulerning Adabiyotshunoslik Terminlarining “the Routledge Dictionary of Literary Terms” Lug’atiga Izohlar

Saidova Mukhayyo Umedilloevna

Ingliz tilshunosligi kafedrası dotsenti, BuxDU Rasulova Nigina Alisherovna Bux.D.U 2-bosqich magistratura talabasi

Tayanch so’zlar: termin, terminologiya adabiyotshunoslik terminlari, lug’at va lug’atshunoslik sohaviy terminlar

Ushbu maqola termin va terminologiya sohasi haqida sohaviy terminlarning o’rganilish jarayonlariva ahamiyatini yoritadi hamda Peter Childs va Rojer Faulerning adabiyotshunoslik terminlarining “The Routledge Dictionary of Literary Terms” lug’ati va undagi adabiyotshunoslik terminlarining e’tiborga molik tomonlari haqida ma’lumotlar berilgan.

В этой статье описывается процесс исследования и важность отраслевых терминов с точки зрения терминологии и терминологии, а также приводится информация о литературных терминах Питера Чайлдса и Роджера Фаулера в Словаре литературных терминов Routledge и об основных аспектах литературных терминов в нем.

This article describes the process and importance of field terms in terms of terminology and terminology, and provides information on Peter Childs and Roger Fowler's literary terms in The Routledge Dictionary of Literary Terms and the notable aspects of literary terms in it.

Ilmiy adabiyotlarni o’rganish hozirgi davr dunyo tilshunosligining diqqat markazida turli xil mavzular bilan birga terminologiya ham turganligini ko’rsatadi. Terminologiya zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning aktual yo’nalishlaridan biridir. Hozirgi paytda terminologiyaning chuqur o’rganilishi, birinchidan, terminlarning shakllanish jarayoni, yasalishi, rivojlanishi va funksiyasi kabi masalalarning yetarli darajada o’rganilmaganligi deb baholansa ikkinchidan, ilm-fan va ijtimoiy sohalarining tezkorlik bilan rivojlanishi tufayli yangi tushunchalarning ko’payib borishi sabablari bilan bog’liq hodisa deb izohlanadi. Terminologiya har bir til so’z boyligining juda katta qismini tashkil etadi. Uning juda tez rivojlanishi ham bejiz emas, chunki u yangi so’zlar yasash imkonini beradi. Bilim, sanoat yoki madaniyatning biror maxsus sohasiga tegishli biror so’z yoki so’z birikmasi termin deb ataladi. Termin ifoda etayotgan biror so’zning mazmuni mavzuli biror adabiyotda izohlash orqali talqin qilinadi. So’z ifodasi lingvistik termin deb hisoblanishi "Science and Education" Scientific Journal Volume 1 Issue 2 May 2020 451 www.openscience.uz mumkun deb yozgan edi Z.Xarris va I.F.Frizyslar. Ular deskriptiv lingvistika tarafdorlaridan bo’lib, so’z ifodasini quyidagicha ta’riflaydilar: “So’z ifodasi insonning har qanday nutqi bo’lib, u sukutdan oldin yoki keyin ifoda etilishi mumkin”. Fanning har bir bo’limi yoki maktabi o’z tabiati va metodlariga moslab maxsus terminologiyani rivojlantiradi. Bunday maxsus terminologiya ilmiy izlanishning muhim qismi bo’lib, katta ahamiyat kasb etadi. Chunki u rivojlanishga katta hissa qo’shadi. Tilshunoslik terminlariga doir ilmiy va amaliy fikrlar Axmanova (1966-1990), Golovin (1976), Kulikova (2002), Shelov (1998) va boshqalar ishlarida bayon qilingan.

Biz tadqiqot obyektlari sirasiga kiritgan Peter Childs va Rojer Faulerning adabiyotshunoslik terminlarining “The Routledge Dictionary of Literary Terms” lug’ati 1973-yilda birinchi marta “zamonaviy kritik terminlar lug’ati (“A Dictionary of Modern Critical Terms”) sifatida va keyinchalik 1987-yilda qayta to’ldirilgan nashri Routledge va Kegan Paul Ltd tomonidan nashr qilingan. Lug’atning umumiy hajmi izohlardan tashqari 253 sahifani tashkil qiladi. Ushbu lug’at, lug’at va uning mualliflari haqida ma’lumot berish bilan boshlanadi. Unga ko’ra Routledge



adabiy atamalar lug'ati - bu Rojer Faulerning zamonaviy tanqidiy lug'atining yigirma birinchi asrdagi yangilanishidir. Hamda o'shaa davrning Terri Eagleton va Malkolm Bredberi kabi taniqli nazariyotchilar tomonidan yozilgan asl yozuvlarni joriy atamalar va qarama-qarshiliklarning yangi ta'riflari bilan birlashtirgan holda, barcha darajadagi adabiyot talabalari uchun muhim qo'llanmadir deb izoh beriladi. Ushbu kitob:

- "Kibertanqid" va "Globallashuv" kabi zamonaviy tanqidiy muammolarning yangi ta'riflari
- Janr, shakl, madaniyat nazariyasi va adabiy texnika kabi mavzularning ko'plab jihatlarini o'z ichiga olgan to'liq assortiment
- Adabiyotni o'rganish va ishlab chiqarishga an'anaviy va radikal yondashuvlarni to'liq yoritish
- Tanqidiy terminologiyaning to'liq hisoblari va asosiy akademik munozaralarning tahlillari
- To'liq o'zaro bog'liqlik va keyingi o'qish uchun takliflarni o'z ichiga olishi haqida ma'lumot berib o'tilgan va undan so'ng mualliflar haqida ma'lumotlar taqdim etilgan, unga ko'ra:

Piter Childs Gloucestershire universitetida zamonaviy ingliz adabiyoti professori. Uning so'nggi nashrlari orasida "Modernizm" (Routledge, 2000) va Zamonaviy romanchilar: 1970 yildan beri Britaniya fantastikasi ("Contemporary Novelists: British Fiction Since 1970") (Palgrave, 2004) kabilar o'rin olgani aytiladi.

Roger Fauler (1939-99) Sharqiy Angliya universitetida ingliz tili va tilshunoslik bo'yicha taniqli va uzoq vaqt xizmat qilgan professor, asl "Zamonaviy tanqidiy atamalarning lug'ati"ning ("Dictionary of Modern Critical Terms") (Routledge, 1973, 1987) muharriri kabi ma'lumotlar yozilgan.

Lug'at so'z boshi o'rnida mualliflar hamda nashr etuvchilar haqida yana bir bor tanishtirib o'tish bilan birga mualliflik huquqi himoyalanganligi va lug'atga o'zgartirish yoki qo'shimchalar faqatgina mualliflar tomonidan kiritilishi mumkinligi haqida ogohlantiriladi. Keyingi sahifada Kler Filpottga minnatdorchilik bilan degan jumla berilgan. Tarkibiy qism berilgan sahifadan so'ng mundarija sifatida berilgan terminlar ro'yxati mavjud. So'z boshi o'rnida lug'at an'anaga ko'ra alifbo tartibida va unga berilgan har bir so'z (termin) imkon boricha yengil, ommabop, tushunarli xalqchil tilda yozilganligi ahamiyatga molikdir.

Ushbu lug'atni mutolaa qilib quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin:

1. Ingliz va boshqa tillarda ko'plab adabiyotshunoslik terminlari lug'atlari yaratilgan bo'lib, ularning mavzuiy guruhlari, yuzaga kelish manbalari, tuzilishi va mazmuni hozirga qadar chuqurroq o'rganilishni talab qiladi.
2. Terminologiyaa o'ziga hos tadqiqot yo'nalishi sifatida 1931- yildan buyon o'rganilib kelayotgani holda shu davr mobaynida terminlarning ta'rifi, maqomi, hos xususiyatlari, boshqa lug'aviy birliklarga munosabati, turli fanlar terminlari asosida o'rganilgan, termin hosil qiluvchi affiksalar aniqlangan.
3. "The Routledge Dictionary of Literary Terms" lug'atining yutuqli tomoni lug'atda berilgan terminlarga berilgan izohlarning boshqa lug'atlarga nisbatan to'liqligi ya'ni misollarning asoslab berilganligidir. hamda ba'zi so'zlarning kelib chiqish tarixlari haqida ham to'xtalib o'tilgan.
4. Bizningcha ushbu lug'atda adabiyotshunoslik terminlarining hammasida qaysi tillardan olinganligi va barcha so'zlarning inglizcha o'qilishi (transkripsiyasi) berilganda uning foydalilik koeffitsienti ortgan, o'quvchi u yoki bu termin genezisi haqida ma'lumot olish uchun boshqa manbalarga qaramagan bo'lar edi.



ADABIYOTLAR

1. Abrams M.H. A Glossary of Literary terms.-USA, Heinle & Heinle, a division of Thomson Learning, Inc.,1999.-366 p.
2. Baldick Chris. The Concise Oxford Dictionary of Literary terms.- Oxford: Oxford University Press, 2001.-280p..
3. Peter Childs, Rojer Fauler. The Routledge Dictionary of Literary Terms.-Taylor & Francis e-library.,2006.-253p.
4. Saidova M.U. Kris Boldikning “Adabiyotshunoslik terminlarining qisqacha izohli oksford lug’ati”(“ The Concise Oxford Dictionary of Literary terms”) ga izohlar.- Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti 2019/4(76).-161-164 b.
5. Saidova, M. U. (2019). Lexical Stylistic Devices and Literary Terms of Figurative Language. International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN, 2277-3878. <https://www.ijrte.org/wp-content/uploads/papers/v8i3S/C10541083S19.pdf>.
6. Saidova, Muhayyo (2021) "SEMANTIC ANALYSIS OF LITERARY TERMS BY LITERARY TYPES IN “THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERATURE TERMS”," Philology Matters: Vol. 2021 : Iss. 1 , Article 11. DOI: 10.36078/987654486 Available at: <https://uzjournals.edu.uz/philolm/vol2021/iss1/11>
7. Saidova, Mukhayyo Umedilloevna (2020) "LEXICOGRAPHIC AND ETHYMOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERARY TERMS BY Ch. BALDICK," Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 2 : Iss. 9 , Article 45. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss9/45>
8. Umedilloevna, S. M. (2020). The problem of classification of literary terms in “the concise oxford dictionary of literary terms” by chris baldick. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(6), 527-531. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=10&issue=6&article=07>
9. Расулов, З. И. (2011). Синтаксический эллипсис как проявление экономии языка): автореферат дисс.. кандидата филологических наук/Расулов Зубайдулло Изомович.- Самарканд, 2011.-27 с. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=BMFYyZIAAAAJ&citation_for_view=BMFYyZIAAAAJ:UeHWp8X0CEIC
10. Расулов, З. И. (2017). Особенности моделирования эллиптических предложений в связи с позиционными звеньями. Тил бирликларини қиёсий-типологик ва лингвомаданиятшунослик йўналишларида тадқиқи ва уларнинг тилларни ўқитишдаги ўрни. Илмий мақолалар тўплами. Қ, 2, 54-56. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=BMFYyZIAAAAJ&citation_for_view=BMFYyZIAAAAJ:YsMSGLbcyi4C
11. Расулов, З. И. (2010). Принцип контекстуального анализа эллиптических предложений (на материале английского языка). Вестник Челябинского государственного университета, (21), 91-94. <https://cyberleninka.ru/article/n/printsip-kontekstualnogo-analiza-ellipticheskikh-predlozheniy-na-materiale-angliyskogo-yazyka/viewer>
12. Kobilova, N. S. (2018). BENEFITS OF USING SONGS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO YOUNG LEARNERS. In Инновационные подходы в современной науке (pp. 102-107). <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=35081671>
13. Kobilova, N. S. (2016). LITERARY INTERPRETATION OF SOCIAL PSYCHOLOGY IN THE NOVEL" MARTIN EDEN". World science, 4(3 (7)), 52-53. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=25619815>